

BUXORO VA ROSSIYA ELCHILIK MUNOSABATLARI (BENEVENI ELCHILIK MISOLIDA)

I.M. Xaydarov

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

“Markaziy Osiyo xalqlari tarixi” kafedrası professori, tarix fanlari doktori (DSc).

Ulashov Behruz

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, “Sharq mamlakatlari tarixi” yo‘nalishi 2-kurs talabasi.

E-mail: izzatillakhon@gmail.com, ulashovbexruz942@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20152863>

Annotatsiya: Bu maqolada XVIII asrda Buxoro amirligi va Rossiya o‘rtasidagi o‘zaro elchilik va diplomatik munosabatlari, savdo va iqtisodiy aloqalari hamda Buxoro amirligi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari haqidagi ma‘lumotlar bayon etilgan. Shuningdek, mazkur maqolada Buxoro amirligi elchilari Ernazarbiy hamda Polvonquli qo‘rchi elchiligi tarixi va ularning Rossiya bilan elchilik munosabatlarda tutgan o‘rni kabi masalalar ham yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Buxoro amirligi, Rossiya imperiyasi, Yekaterina II, Doniyolbiy otaliq, amir Shohmurod, Ernazarbiy, Pavel I, Polvonquli qo‘rchi.

EMBASSY RELATIONS BETWEEN BUKHARA AND RUSSIA. (ON THE EXAMPLE OF THE BENEVENI EMBASSY)

Abstract: This article presents information about the diplomatic and diplomatic relations, trade and economic relations, and the main principles of the foreign policy of the Bukhara Emirate in the 18th century. This article also covers the history of the embassy of the ambassadors of the Bukhara Emirate, Ernazarbiy and Polvonkuli Korchi, and their role in diplomatic relations with Russia.

Keywords: Bukhara Emirate, Russian Empire, Catherine II, Daniyalbiy fatherhood, emir Shakhmurad, Ernazarbiy, Pavel I, Polvonkuli Korchi.

ПОСОЛЬСКИЕ ОТНОШЕНИЯ МЕЖДУ БУХАРОЙ И РОССИЕЙ. (НА ПРИМЕРЕ ПОСОЛЬСТВА БЕНЕВЕНИ)

Аннотация: В данной статье представлена информация о дипломатических и торговых отношениях, а также об основных принципах внешней политики Бухарского эмирата в XVIII веке. Также рассматривается история посольства послов Бухарского эмирата, Эрнazarбия и Полвонкули Корчи, и их роль в дипломатических отношениях с Россией.

Ключевые слова: Бухарский эмират, Российская империя, Екатерина II, отцовство Даниялбия, эмир Шахмурад, Эрнazarбий, Павел I, Полвонкули Корчи.

Kirish. XVIII asr Rossiya-Buxoro diplomatik aloqalari XVIII asr boshlarida Rossiya imperatori Pyotr I Kaspiy dengizi orqali Hindistonga yo‘l ochishga qaratilgan. Bu O‘rta Osiyo xonliklarini Rossiya ta‘siriga olish maqsadida diplomatik va josuslik missiyalarini yuborishni faollashtirdi. Natijada, Rossiya Buxoro xonligi bilan ittifoq tuzish, Xiva xonligiga qarshi birgalikda harakat qilish, savdo yo‘llarini xavfsizligini ta‘minlash va Buxoro orqali Hindiston savdosiga chiqishni rejalashtirgan. Buxoro xonlari (xususan Abulfayzxon) Rossiya bilan savdoni rivojlantirish orqali iqtisodiy foyda olish va qo‘shni bosqinchi davlatlarga qarshi kurashda Rossiyadan harbiy yordam olishdan manfaatdor edi. Beneveni Elchiligi (1718-1725)

Italiyalik, asli Dubrovnikdan bo'lgan Florio Beneveni Pyotr I ning maxsus topshirig'i bilan Buxoroga yuborilgan elchilik boshlig'i (aslida josuslik missiyasi rahbari) edi. Beneveni Buxoroga 1721-yil 6-noyabrda Xonquli to'pchiboshi boshchiligidagi buxorolik elchilar bilan birga yetib kelgan. Beneveniga Buxoroning ichki ahvoli, qo'shinlar soni, qal'alar holati, Eron va Xiva bilan munosabatlari haqida ma'lumot to'plash, shuningdek, oltin konlarini aniqlash topshirilgan. Beneveni Buxoroda 3,5 yil davomida (1721-1724) qolib, o'z oldiga qo'yilgan barcha vazifalarni bajargan. U Buxoro atroflari va geografiyasi haqida qimmatli ma'lumotlarni yig'ib, ularni yashirin xatlarda Rossiyaga jo'natib turgan. Beneveni 1725-yilda Peterburgga qaytgan. Uning to'plagan ma'lumotlari "Buxorodagi sobiq elchi Flori Benevenining qisqacha jurnali" sifatida Rossiya tashqi siyosatida, xususan, O'rta Osiyoni o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qilgan. Elchilikning Oqibatlarini Beneveni elchiligi Rossiyaga Buxoro bilan savdo aloqalarini mustahkamlash, shuningdek, mintaqaning zaif tomonlarini o'rganish imkonini berdi. Garchi to'g'ridan-to'g'ri harbiy ittifoq tuzilmagan bo'lsa-da, bu missiya ikki davlat o'rtasidagi diplomatik munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqdi va keyingi bosqinchilik siyosatiga asos bo'ldi.

Adabiyotlar sharhi. Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasi o'rtasidagi diplomatik aloqalar tarixida Florio Beneveni elchiligi (1718–1725) alohida o'rin tutadi. Bu missiya Pyotr I ning Markaziy Osiyo orqali Hindistonga yo'l ochish va mintaqadagi iqtisodiy-siyosiy vaziyatni o'rganishga bo'lgan jiddiy urinishi edi. Ushbu mavzuni yoritishda foydalanilgan asosiy adabiyotlarni uchta guruhga bo'lish mumkin: 1. Rossiya arxiv hujjatlari va birlamchi manbalar Beneveni elchiligi haqidagi eng muhim ma'lumotlar uning o'z hisobotlari va kundaliklarida saqlangan. "Посланник Петра I на Востоке: Посольство Флоридо Беневени в Персию и Бухару в 1718-1725 годах?" (- Москва, 1986)¹. Bu kundalikda Benevenining safar taassurotlari, hisobotlari va Pyotr I bilan yozishmalari jamlangan. Bu asar voqealarning real manzarasini chizib beruvchi eng asosiy manba hisoblanadi.

O.P. Sheglova Beneveni elchiligi va uning Buxoro amiri Abulfayzxon saroyidagi faoliyatini Eron va Buxoro o'rtasidagi diplomatik uchburchak kontekstida o'rgangan.

H. Ziyoevning "O'zbekistonning Kaspiy-Volga bo'ylari va Rossiya bilan aloqalari tarixi"² kitobida muallif Beneveni elchiligini Rossiyaning iqtisodiy ekspansiyasi va Buxoroning tashqi savdo yo'llarini diversifikatsiya qilish harakati sifatida baholaydi. G. Rashidova (XVIII asrning birinchi choragida Buxoro xonligining Rossiya bilan diplomatik aloqalari): Bu tadqiqotda aynan Beneveni missiyasining diplomatik protokollari, uning Abulfayzxon saroyidagi nufuzi va amirlikning o'sha davrdagi ichki siyosiy tarqoqligining elchilik ishiga ta'siri yoritilgan. Rossiya zamonaviy tarixshunosligi Rossiyalik tarixchilar Beneveni faoliyatini Pyotr I ning "Sharqiy loyihasi"ning bir qismi sifatida ko'proq professional arxiv tahliliga tayanib o'rganishmoqda: I.V. Zaytsev va boshqalar: Ular "Rossiya va Sharq" turkumidagi ishlarida Benevenining hisobotlarini sharqlashuv (orientalizm) nuqtai nazaridan tahlil qilib, uni Markaziy Osiyo bo'yicha eng yirik "dala tadqiqotchisi" deb atashadi.

¹ Poslanник Петра I Florio Beneveni Uzbekistana. — Tashkent: Izd-vo AN UzSSR, 1950.

² Ziyoyev H. O'zbekistonning Kaspiy–Volga bo'ylari va Rossiya bilan aloqalari tarixi (XVI–XIX asr boshlarida). — Toshkent: Fan, 1966.

S.N. Abashinning Markaziy Osiyodagi etnik va ijtimoiy jarayonlarga doir tadqiqotlarida Beneveni kundaliklari o'sha davrdagi aholi tarkibi va ijtimoiy tabaqalanishni o'rganishda muhim manba sifatida keltiriladi.

Zamonaviy tadqiqotlar va xorijiy adabiyotlar Hozirgi bosqichda elchilik munosabatlari "Sharq va G'arb dialogi" hamda geosiyosiy manfaatlar to'qnashuvi sifatida talqin qilinmoqda. A.S. Sulonov: "Rossiya va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi diplomatik munosabatlar tarixi" yo'nalishidagi ishlarida Benevenining Buxorodagi 7 yillik qiyin diplomatik missiyasini, uning amirlikdagi ichki nizolar va iqtisodiy inqiroz haqidagi kuzatishlarini tahlil qiladi. G'arb tarixchilari (masalan, Audrey Burton): "The Bukharans: A Dynastic, Diplomatic, and Commercial History 1550–1702" asari garchi biroz oldingi davrni qamrasa-da, Beneveni davridagi diplomatik an'analarning shakllanishini tushunish uchun muhimdir. Xulosa o'rnida: Beneveni elchiligi haqidagi adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, u nafaqat diplomat, balki mohir razvedkachi sifatida ham Markaziy Osiyoning ichki ahvoli haqida Rossiya imperiyasiga eng aniq va tizimli ma'lumotlarni yetkazgan ilk shaxs bo'lgan.

G'arb va xalqaro tadqiqotlar Xorijiy adabiyotlarda Beneveni missiyasi ko'proq "Katta o'yin" (Great Game) muqaddimasi sifatida ko'riladi: Audrey Burton (The Bukharans: A Dynastic, Diplomatic, and Commercial History): Garchi asar XVII asrni ham qamrasa-da, zamonaviy nashrlarida Beneveni davridagi Buxoroning iqtisodiy tanazzuli va Rossiya bilan savdo aloqalarining strategik ahamiyati xalqaro kontekstda berilgan. Evgeniy Sergeev (The Great Game, 1856–1907): Kitobning kirish qismlarida XVIII asr elchiliklari, xususan Beneveni missiyasi Rossiyaning mintaqadagi uzoq muddatli strategiyasining poydevori sifatida tahlil qilinadi. Zamonaviy yondashuvning o'ziga xosligi: Hozirgi adabiyotlarda Beneveni shunchaki elchi emas, balki: Madaniyatlararo vositachi: Uning italyan millatiga mansubligi va rus manfaatlarini himoya qilishi global diplomatiya namunasi sifatida ko'rilmogda. Krizis menejeri: Abulfayzxon davridagi siyosiy inqiroz sharoitida elchining omon qolishi va ma'lumot to'plashi uning yuksak diplomatik mahorati sifatida talqin etilmogda.

Natijalar. O'zbekistonning ko'p yillik tarixida Buxoro amirligi alohida ahamiyatga ega bo'lgan davlat sanalgan. Amirlik tarixiga nazar tashlansa, unda amirlikning tashkil topishidan boshlab so'nggi kunlarigacha murakkab siyosiy jarayonlar, keskin ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar hukm surganligini ko'rish mumkin. XVIII asrning II yarmidan boshlab Rossiya savdo aloqalarida O'rta Osiyo xonliklarining, xususan, Buxoro amirligining ahamiyati ortib borgan. XVIII asrda Buxoro amirligi va Rossiya o'rtasidagi munosabatlarda yangi davr boshlandi. Bu davrga kelib Rossiyaning O'rta Osiyo xonliklari, jumladan, Buxoro xonligi bilan savdo-sotiq aloqalarida kamsitish siyosati yuritila boshlandi. Xususan, boj to'lovi miqdori oshirildi. Ayni paytda, siyosiy maqsadlarni ro'yobga chiqarish, tabiiy boyliklarga ko'z olaytirish kayfiyati kuchaya bordi. Rossiyani ayniqsa, O'rta Osiyo oltinlari ko'proq qiziqтира boshladi. Rus imperatori Pyotr I davrida Buxoro amirligini siyosiy jihatdan Rossiyaga teng davlat emas deb hisoblagan hamda turli yo'llar bilan tazyiq o'tkazilgan.

Florio Beneveni 1714-yilda Rossiyaga kelgan, ammo 1708-yildan boshlab rus xizmatida graf Pyotr Andreyevich Tolstoy tomonidan Istanbulga elchi sifatida ishga qabul qilingan. "1708-yilda Konstantinopolda muxtor elchi bo'lgan graf Tolstoy meni xizmatga qabul qildi" deb yozgan Beneveni. U fors, turk, tatar va italyan tillarini yaxshi bilgan. 1710-yil noyabrda, Pyotr I ning turk yurishi boshlangandan so'ng, Tolstoy va 1712-yil aprelda ozod qilingan Konstantinopolning Yetti minorali qal'asida saqlangan Rossiya elchixonasining qolgan qismi

bilan birga hibsga olingan. Prut shartnomasi tuzilgandan so'ng, P.A. Tolstoy, P.P. Shafirov, M.B. Sheremetev, feldmarshalning o'g'li B.P. Sheremetev va elchixonaning boshqa barcha a'zolari, shu jumladan F. Beneveni, Rossiya shartnoma shartlarini bajarishini garovga olgan oylar olti kishi yana qamoqqa tushishgan. Elchi qamoqdagi va keyingi hayotini shunday tasvirlab yozgan: 1717-yilda Sarevich Aleksey Petrovichni ortga qaytish missiyasi bilan P.A. Tolstoy qo'l ostida Venaga, so'ngra Neapolga tarjimon sifatida yuborilgan.

Buxorodagi elchilik 1718-yilda Neapoldan qaytib kelgach, Sharq ekspeditsiyasining kotibi etib tayinlandi. Pyotr I unga Rossiyadan qaytgan buxorolik elchi Qulibek bilan birga Buxoroga borishni buyuradi, buning uchun Astraxanda hibsga olingan. Qulibek Shamaxa va Tehron orqali Buxoroga 1721-yilda yetib keldi. Sayohat va Buxoroda bo'lgan vaqt davomida Beneveni O'rta Osiyo xonliklarining ichki ahvoli, siyosiy kurashi, xalqaro munosabatlari, O'rta Osiyo xonliklarining ichki ahvoli to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zida aks ettiruvchi "Buxorodagi sobiq elchi Florio Benevenining qisqacha jurnali" asarini yuritadi. Rus armiyasining Forsga yurishi haqidagi taassurot, xonlarning o'zlari va ularning yaqin doiralari, saroylardagi axloqi haqida ma'lumot beradi. Buxoroliklarning o'z hududlarida qanday tovarlari bor va ularni qayerda sotadi, buni elchi ko'rib, aniqlagan.

Florio Beneveni Buxoro bilan harbiy shartnoma tuzishning mumkin emasligi haqida shunday xulosaga keladi: 1723-yil martida o'z missiyasini bajarilgan deb hisoblab, Tashqi ishlar kollegiyasidan Buxoroni tark etishga ruxsat so'ragan. Ammo qaytishga faqat 1725-yilda ruxsat olgan. Turli sabablarga ko'ra buxorolik amaldorlar ketishga ruxsat bermaganlar va Beneveni qochish yo'lini qidira boshlagan. Sherg'ozixon Beneviniga o'z tarafiga o'tishni va unga Rossiyaga qaytish yo'lini kafolatlashini taklif qiladi. Elchi bunga rozi bo'lib, 1725-yil 8-aprelda Xivaga qochib o'tadi. Xiva xoni Sherg'ozixon Fors yurishidan keyin Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasining mag'lubiyati uchun qasos olinishdan qo'rqib, Rossiya bilan yarashishga harakat qilgan. 1725-yil avgustda rus elchisi bilan birga Rossiyaga elchisini yarashtirish uchun yuborgan. Sayohatlari davomida shunday yozgan: U bilan birga Bekovich ekspeditsiyasining asirga olingan 92 nafar ishtirokchisi yetib keldi. Dekabr oyida Beneveni yetti yillik yolg'iz elchilikdan so'ng Buxoro va Xiva xonlarining o'sha paytda tirik bo'lmagan Pyotr I ga maktublari bilan Moskvaga kelgan. Ikki yil o'tgach, Beneveni o'z vataniga qo'yib yuborildi va u yerdan Rossiyada xizmat qilish uchun qaytib kelmagan.

Jumladan, 1718-yilda Irtish daryosi sohilida yetti qo'rg'ondan iborat shahar (Semipalatinsk) qurilib, mazkur qal'a siyosiy va harbiy maqsadlarning asosiy tayanchiga aylantirilgan. Bu esa Buxoro xonligini tashvishga solib qo'ydi. Shuning uchun ham Abulfayzxon Rossiyaga elchi yubordi. U o'z maktubida Buxoroga Rossiya elchisi yuborilishini ham so'radi. Bu elchilikka javoban Rossiya hukumati 1721-yilda Florio Benevenini elchi qilib jo'natdi. Rossiya elchisiga quyidagi vazifalar yuklatilgan: Birinchidan, O'rta Osiyoga olib boriladigan suv va quruqlik yo'llarini o'rganish. Ikkinchidan, Rus savdosini kengaytirish imkoniyatlarini aniqlash. Uchinchidan, Buxoroni Rossiya bilan ittifoq tuzishga ko'ndirish. To'rtinchidan, xonga rus gvardiyachilarini taklif qilish. Beshinchidan, oltin konlari borligini aniqlash va ularni xaritaga tushirish; Oltinchidan, xonlikdagi qal'alar joylashuvini hamda qo'shinning ahvolini o'rganish; Yettinchidan, xonlikning qo'shni davlatlar, xususan Eron, Xiva va Usmonli turklar bilan munosabatlarini o'rganish. F. Beneveni Buxoroda 3,5 yil turib o'z oldiga qo'yilgan masalalar bo'yicha qimmatli ma'lumotlar toplashga muvaffaq bo'ldi va 1725-yilda Peterburgga qaytib ketdi. Pyotr I ning yurtimizni bosib olish niyati uning hayotligida amalga oshmagan bo'lsada,

keyinchalik vorislari tomonidan amalga oshirilgan. Hokimiyatga mang'itlar sulolasi kelgach Buxoro amirligi siyosiy jihatdan yanada mustahkamlandi. XVIII asrning 70-80-yillarida Buxoro amirligining markaziy hududlarini Zarafshon vohasi tashkil qilar edi (Samarqand va Buxoro shaharlari shu vohada joylashgan). Bu davrda amirlikning Rossiya bilan savdo aloqalari tobora o'sib borgan. Bunga, Rossiya taklif qilayotgan sanoat mahsulotlarining turi ko'payganligi va savdo yo'llarining xavfsizligi sabab bo'ldi. Aynan shu vaqtlardan amirlik iqtisodiyoti Rossiya bilan savdo qilishga mo'ljallangan o'ziga xos yo'nalishga ega bo'la boshlagan. Bu davrda amirlikda yetishtirilgan 16 ming tonna paxtaning hammasi Rossiyaga sotilganligi, amirlik har yili faqat to'qimachilik sanoati mahsulotlarining o'zidan ikki million rublli tovar eksport qilinganligi, Rossiya tashqi savdosida amirlikning ulushi 25 foizni tashkil etganligi kabi ma'lumotlar ham yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi. Buxoro amirligining Rossiya bilan savdo-sotiq munosabatlari o'sganligi tashqi siyosiy vaziyat bilan ham bog'liq. Buxoro amirligi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilarda namoyon bo'ladi: O'rta Osiyoda mavjud uch o'zbek davlatlari orasida yetakchi mavqega ega bo'lish va qulay imkoniyat tug'ilganda ularni bo'ysundirish;

- Xurosonda mustahkam o'rnashib olish;
- Rossiya va boshqa davlatlar bilan savdo munosabatlarini rivojlantirish;
- O'rta Osiyo mintaqasidagi barcha musulmonlarning amiri sifatida musulmonlarning Astraxan orqali Makkaga Haj safariga borib kelishlarini ta'minlab turishni yo'lga qo'yishdan iborat bo'lgan.³

Mang'it amirlari Rossiya bilan munosabatlarga doimo katta ahamiyat bergan. Ikki davlat o'rtasidagi o'zaro manfaatli munosabatlarning qaror topishida elchilar almashinuvi muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, XVIII asrning so'ngi choragida elchi Ernazarbiyning Rossiyaga ikki bor tashrifi bu o'rinda tengsiz bo'ldi. Ernazarbiy (Ernazar Maqsutov) keng dunyoqarashga va bilimga ega diplomat va savdogar edi. U har ikki davlat o'rtasida o'zaro ishonchga asoslangan munosabat qaror topishi uchun astoyidil harakat qildi. Ernazarbiyning ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash ishiga qo'shgan hissasini munosib taqdirlash maqsadida Rossiya imperatori Yekaterina II Buxoroda madrasa qurish uchun pul ham ajratgan. Shu pulga qurilgan va Ernazarbiy nomi bilan ataluvchi madrasa hozirgacha qad ko'tarib turibdi. Ernazarbiy elchi sifatida savdo aloqalarini rivojlantirishdan tashqari, Astraxan shahrida Rossiya tomonidan jome masjidi qurdirishga hamda amirlik fuqarolarining Astraxan orqali Haj safariga erkin borib kelishlarining kafolatlanishiga erishdi. Ernazarbiy elchiligidan Doniyolbiy siyosiy maqsadlarni ham ko'zlagan edi. Buxoro – Usmonli davlati munosabatlari haqida rus hukumatining qanday fikrda ekanligini bilish maqsadida, uning topshirig'iga ko'ra, elchi rus hukumatiga Buxoroning Usmonli davlati bilan do'stlik aloqalarini mustahkamlashga harakat qilishini ham ma'lum qildi. Shuningdek, Rossiya orqali Istanbul shahriga borish uchun ruxsat so'radi. Albatta, rus hukumati Buxoroning asosiy raqiblaridan biri Usmonli davlati qatorida turishni istamas edi. Shuning uchun ham rus hukumati Doniyolbiyning barcha iltimoslarini bajardi.

³ Ғуломов Х. Дипломатические отношения государств Средней Азии с Россией (XVIII – первая половина XIX вв.). - Ташкент: Fan, 2005.

Buxoro-Rossiya siyosiy munosabatlarida 1797-yilda amir Shohmurod yuborgan Polvonquli qoʻrchi

elchiligi alohida oʻrin egallaydi. Polvonquli boshchiligidagi elchilikning Rossiyaga yuborilishiga

Eronning Buxoro amirligi xavfsizligiga tahdid sola boshlaganligi asosiy sabab boʻldi. Bu davrda Kavkazda Rossiya-Eron munosabatlari ham keskinlashgan edi. Amir Shohmurod bu omildan foydalanishga qaror qildi va Buxoro-Eron oʻrtasida urush kelib chiqqudek boʻlsa, birgalikda harakat qilishni taklif etdi. Rossiyaning yangi imperatori Pavel I Buxoro amirligi elchilarni yaxshi kutib olgan. Biroq Yevropadagi muammolari bilan band boʻlgan Rossiya bu taklifni qabul qilmadi. Amir Haydar va amir Nasrullo hukmronligi davrida ham Rossiya-Buxoro munosabatlari oʻsishda davom etgan. Har ikki tomon bir-biriga elchilar yuborib turishgan. Jumladan, Amir Haydar elchilar orqali Rossiya hukumati oldiga Ural daryosining Osiyo qitʼasi qismidan amirlik savdogarlariga haq toʻlmasdan chorva mollari boqishlari uchun joy ajratib berish; Buxoroga poʻlat sotish; savdo karvonlarining talanishiga yoʻl qoʻymaslik kabi talab va iltimoslarni qoʻygan. Rus hukumati savdo karvonlari qaroqchilariga birgalikda qarshi kurashga ittifoqchi boʻlgani holda, chorva mollari boqishga ajratiladigan yerlar uchun haq toʻlmaslikni qabul qilmaganligi manbalardan maʼlum. Rossiya imperiyasi hukmron doiralari oʻzlarini Buxoro amirligiga qanchalik doʻst qilib koʻrsatmasinlar, ayni vaqtda ular Oʻrta Osiyoni butunlay bosib olishga zimdan tayyorgarlik koʻrishayotgan edi. Shuning uchun Rossiya Ignatyev elchiligidan keyin boshqa elchi yubormadi. Oʻzbek xonliklari orasidagi oʻzaro nizo urushlar, parokandalik, oxir-oqibat, ularning Rossiya imperiyasi tomonidan mustamlakaga aylantirishi uchun qulay imkoniyat yaratgan. Oʻzbekistonning birinchi Prezidenti I. Karimov taʼkidlaganidek, “Yurt hukmdorlari va amaldorlari xalqning taqdiri va kelajagi haqida qaygʻurish oʻrniga, oʻz shaxsiy manfaatlarini hamma narsadan ustun qoʻyib, jaholat va vaflatga berilib ketishi oqibatida biz bugun yashayotgan mintaqa umumbashariy taraqqiyot jarayonlaridan uzilib, rivojlanishdan keskin orqada qolib ketdi”.

Xonquli toʻpchiboshi (XVII-asr oxiri XVIII-asrning I-choragi) – Buxoro xonliginiig Rossiyaga yuborgan elchilari rahbari (1716-18). Xonquli toʻpchiboshi rus asirlaridan boʻlib, musulmonlikni qabul qilgan va Buxoro xoni Abulfayzxon saroyida xizmat pogʻonasida xon qulidan toʻpchiboshi mansabigacha erishgan. Xonquli toʻpchiboshi boshchilik qilgan elchilarning asosiy maqsadi Rossiya bilan Buxoro oʻrtasida oʻzaro boj olmay savdosotiq qilishni yoʻlga qoʻyish, asirlikdagi buxoroliklarni ozod qilish boʻlgan. Elchilik oʻz vazifasini toʻla ado etgan.

Buxoro elchilari Peterburgdan 1718 yil 18 martda joʻnab ketishgan. Ashtarxonda ularning safiga Pyotr I tomonidan Rossiya davlatining Buxoro xonligidagi elchisi (aslida josuslik missiyasi boshligʻi) qilib tayinlangan Florio Beneveni qoʻshilgach (1718 yil 13 noyabr), har ikki elchilik hayʼatini Eron orqali Buxoroga joʻnab ketishi maʼqul koʻrilgan. Ashtarxondan faqat 1719-yil 24-iyunda yoʻlga chiqilgan. Xonquli toʻpchiboshi va F. Beneveni Shirvon xoni huzurida -Shemaxada ancha turib qolishgach, 1721 yil 25 mayda Buxoroga yoʻl olishgan. 1721 yil 6 noyabrda Xonquli toʻpchiboshi va F. Beneveni boshchiligidagi elchilar Buxoro shahrida tantanali kutib olingan.⁴

⁴ Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi. "Beneveni Florio" va "Buxoro amirligi" maqolalari. — Toshkent, 2000-2005.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy tarixshunoslikda Florio Beneveni nafaqat oddiy diplomat, balki Markaziy Osiyo tarixini tizimli o'rgangan ilk yirik "dala tadqiqotchisi" sifatida e'tirof etiladi. Uning hisobotlari va kundaliklari bugungi kunda shunchaki diplomatik hujjat emas, balki: I.V. Zaytsev talqinidagidek, Rossiyaning Sharqni anglashidagi ilk professional etnografik va geografik manba; S.N. Abashin tadqiqotlarida ta'kidlanganidek, XVIII asrdagi Buxoro amirligining etnik tarkibi, ijtimoiy qatlamlari va aholi turmush tarzini yorituvchi eng ishonchli fundamental asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Beneveni missiyasi Rossiya va Buxoro o'rtasidagi an'anaviy "savdo elchiliklari" formatini strategik-siyosiy darajaga olib chiqdi. Zamonaviy tadqiqotchilar (G. Rashidova, I. Zaytsev) ta'kidlashicha, bu elchilik Rossiyaning Markaziy Osiyodagi uzoq muddatli geosiyosiy manfaatlarini shakllantirgan ilk professional missiya bo'lgan. 2. Islohotchi elchi va kuzatuvchi: Beneveni nafaqat muzokaralar olib borgan, balki Buxoro amirligidagi ichki inqirozni, Abulfayzxon saroyidagi siyosiy guruhlar kurashini va iqtisodiy tushkunlikni ichkaridan tahlil qilgan. Adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, uning hisobotlari Rossiya imperiyasining keyingi bir asrlik Markaziy Osiyo strategiyasiga asos bo'lib xizmat qilgan. 3. Manbahunoslikdagi o'rni: Tarixshunoslikda Beneveni kundaliklari XVIII asrning birinchi choragiga oid eng noyob manba sifatida tan olingan. Unda keltirilgan geografik yo'nalishlar, daryolar oqimi, Amudaryoning eski o'zani (Uzboy) haqidagi ma'lumotlar bugungi kunda ham nafaqat tarixchilar, balki geograf va tabiatshunos olimlar tomonidan keng o'rganilmoqda. 4. Madaniyatlararo muloqot: Zamonaviy yondashuvlarda Beneveni shaxsi "G'arb-Sharq-Rossiya" uchrashigida ko'prik vazifasini o'tagan diplomat sifatida ko'riladi. Uning italyan madaniyatiga mansubligi, rus manfaatlarini himoya qilishi va musulmon Sharqi muhitida 7 yil davomida (asirlik va elchilik orasida) faoliyat yuritishi uning diplomatiyasini o'ziga xos fenomen darajasiga ko'targan.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Beneveni F. Buxaru v 1718–1725. V. G. Volovnikov. — M.: Nauka, 1986. (Elchining kundaliklari va hisobotlari to'plami).
2. Посланник Петра I Флорио Беневени в Узбекистане. — Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1950.
3. Ziyoyev H. O'zbekistonning Kaspiy–Volga bo'ylari va Rossiya bilan aloqalari tarixi (XVI–XIX asr boshlarida). — Toshkent: Fan, 1966.
4. Ziyoyev H. O'zbekiston mustaqilligi uchun kurashlar tarixi. — Toshkent: Sharq, 2001.
5. Rashidova G. XVIII asrning birinchi choragida Buxoro xonligining Rossiya bilan diplomatik aloqalari. (Nomzodlik dissertatsiyasi va maqolalar to'plami). — Toshkent, 1990-yillar.
6. Фуломов Х. Дипломатические отношения государств Средней Азии с Россией (XVIII – первая половина XIX вв.). — Ташкент: Fan, 2005.
7. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. "Beneveni Florio" va "Buxoro amirligi" maqolalari. — Toshkent, 2000-2005.